

UDK: 37.091.3:372.882

ADABIY TA'LIMDA KOLLABORATIV YONDASHUV TURLARI VA ULARNING KONSEPTUAL-METODIK ASOSLARI

Normahamatova Inoyatxon Maxmudovna

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

normaxamatovainoyatxon@mail.com

<https://orcid.org/0009-0002-9836-0591>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21903816>

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim muassasalarida adabiy talim jarayonini zamonaviy pedagogik paradigmalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablari asosida takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etildi. Unda adabiy matnni idrok etish, estetik-badiiy qatlamlarini ochish va o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda an'anaviy yondashuvlarning metodik imkoniyatlari cheklangani asoslab berildi. Tadqiqot doirasida adabiy ta'limda kollaborativ yondashuv turlari (guruhli hamkorlikdagi o'qitish, o'zaro o'qitish, juftlikdagi muhokama) tasniflanib, ularning konseptual-metodik asoslari ochib berildi. Shuningdek, o'tkazilgan eksperimental-sinov ishlarining natijalari tahlil qilinib, ijobiy o'zaro bog'liqlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga asoslangan darslar o'quvchilarning adabiy-estetik kompetensiyalari hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatishi isbotlandi. Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot darslarini tashkil etishda metodik tavsiya sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lim, kollaborativ yondashuv, konseptual asos, metodik ta'minot, pedagogik shart-sharoit.

Abstract: This article scientifically and pedagogically substantiates the types of collaborative approach and their conceptual and methodological foundations in organizing literature education in secondary schools. Effective forms of developing students' joint activities in analyzing literary texts are revealed. Based on L.S. Vygotsky's theory of socio-cultural development, the conceptual principles of the collaborative method are defined, and the results of experimental work proving the high efficiency of educational forms such as group cooperation, reciprocal teaching, and pair discussions are analyzed.

Keywords: Literature education, collaborative approach, conceptual framework, methodological support, pedagogical conditions.

Аннотация: В данной статье научно-педагогически обоснованы виды коллаборативного подхода и их концептуально-методические основы в организации литературного образования в общеобразовательных школах. Раскрыты эффективные формы развития совместной деятельности учащихся при анализе художественного текста. На основе теории социально-культурного развития Л.С. Выготского определены концептуальные принципы коллаборативного метода, а также проанализированы результаты опытно-экспериментальной работы, доказывающие высокую эффективность таких форм обучения, как групповое сотрудничество, взаимообучение и обсуждение в парах.

Ключевые слова: Литературное образование, коллаборативный подход, концептуальная основа, методическое обеспечение, педагогические условия.

Kirish. Jahon ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil va ijodiy yondashuv hamda jamoada samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish pedagogika fani oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir. “Adabiy ta'lim jarayoni shunchaki badiiy asar syujetini o'zlashtirish yoki muallif tarjimaiy holini yod olish bilan cheklanib qolmasligi, balki matn ortidagi g'oyaviy-estetik qatlamlarni ochish, o'quvchining shaxsiy munosabatini rivojlantirish hamda ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilishi lozim” [1. 45]. Biroq amaldagi dars jarayonlarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda an'anaviy, ya'ni o'qituvchining ustunligiga va tayyor bilimlarni uzatishga asoslangan yondashuvlar saqlanib qolmoqda. Bu holat o'quvchilarning passiv pozitsiyada bo'lishiga, ularning mustaqil fikrlashi va matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo'lmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun o'quvchilarni faol bilim oluvchiga aylantiruvchi, o'zaro hamkorlik va jamoaviy faoliyatga asoslangan kollaborativ texnologiyalarni adabiy ta'limga tatbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda [2.112].

Kollaborativ yondashuv ta'lim oluvchilarning umumiy intellektual maqsad sari birgalikda harakat qilishi, fikr almashishi va bir-birining tafakkurini boyitishini ta'minlaydi. Pedagogika nazariyasida bu yondashuv shaxsga yo'nlirilgan talim tamoyillari va ijtimoiy-konstruktivistik g'oyalar bilan uzviy bog'liqdir [3.89]. Shu nuqtayi nazardan, adabiy ta'lim jarayonida kollaborativ yondashuv turlarining konseptual-metodik asoslarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida adabiy ta'limni tashkil etishda kollaborativ yondashuv turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning konseptual-metodik asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab olish zarur:

-adabiy ta'limda kollaborativ yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish;

-amaliyotda qo'llanadigan kollaborativ yondashuv turlari (guruhli hamkorlik, o'zaro o'qitish, juftlikdagi muhokama) ni tasniflash;

-badiiy matnni tahlil qilishda hamkorlikdagi o'qitish shakllarining samaradorligini eksperimental jihatdan baholash va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy asarni estetik idrok etish darajasini yuksaltirish, ularda tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika fanining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning faolligini oshirish va dars samaradorligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar davr talabidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich takomillashib borgan.

O'zbek pedagogikasida adabiy ta'limni tashkil etish va uning uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalari Q.Yo'ldoshev, B.To'xliyev, S.Matchonov kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan. Jumladan, Q.Yo'ldoshev o'z ilmiy izlanishlarida badiiy matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchining shaxsiy munosabati, badiiy idrok etish xususiyatlari hamda muallif niyatini ochib berish metodikasiga alohida e'tibor qaratgan [2.178]. Shuningdek, S.Matchonov va B.To'xliyevlarning tadqiqotlarida adabiyot darslarida interfaol va guruhli ishlash shakllaridan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutqi, muloqot madaniyati hamda o'quv-bilish faolligini oshirishda muhim omil ekani ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3.53].

Kollaborativ yondashuvning konseptual va metodik asoslari xorij olimlarining ilmiy tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan. Xususan, D.Jonson va R.Jonsonlarning ilmiy ishlarida guruhli hamkorlikdagi o'qitishning ijobiy o'zaro bog'liqlik, shaxsiy javobgarlik va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berilgan. “Hamkorlikdagi o'qitish bu-o'quvchilar umumiy o'quv maqsadiga erishish yo'lida kichik guruhlarda birgalikda harakat qiladigan, bunda har bir guruh a'zosining ham o'zlashtirishi, ham sheriklarining muvaffaqiyati uchun mas'ul bo'lishini ta'minlaydigan pedagogik muhitdir [5.78]. Mualliflar hamkorlikka asoslangan muhit o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilash bilan birga ularda jamoada muammolarni hal etish madaniyatini shakllantirishini ta'kidlaydilar.

Pedagogik-psixologik jihatdan kollaborativ yondashuv L.Vigotskiyning “Ijtimoiy-madaniy rivojlanish” va “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga tayanadi. Unga ko'ra o'quvchi yakka tartibda o'zlashtirishda qiynaladigan murakkab badiiy-falsafiy matnlarni tengdoshlari bilan o'zaro muloqot muhitida muvaffaqiyatli idrok etishi mumkin. Muallif : “Bola mustaqil ravishda qila olmaydigan, lekin hamkorlikda, yo'l-yo'riq yordamida yoki tengdoshlari ko'magida bajara oladigan narsa uning yaqin rivojlanish zonasini belgilaydi”, - deb ta'kidlaydi. [4.250].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida adabiy ta'limda kollaborativ yondashuv turlarining konseptual-metodik asoslarini ochib berish maqsadida tizimli-tahliliy, qiyosiy-pedagogik, pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va eksperimental-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida adabiyot darslarini tashkil etishning amaldagi holatini o'rganish va o'quvchilarning badiiy matnni idrok etish darajasini aniqlashga qaratildi. Eksperimental – sinov ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi: 1.Diagnostik-tahliliy bosqich. Umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining badiiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda o'z fikrini asoslash va jamoada ishlash ko'nikmalari o'rganildi. An'anaviy darslarda o'quvchilarning faollik darajasi va matnni tushunish ko'rsatkichlari qayd etildi. 2.Eksperimental bosqich. O'quv jarayonida kollaborativ yondashuv turlari (guruhli hamkorlikdagi o'qitish, o'zaro o'qitish va juftlikdagi muhokama) maxsus metodik ishlanmalar asosida joriy etildi. Bunda badiiy matnlar yirik mavzuli qismlarga bo'linib, o'quvchilarga taqsimlandi. Har bir guruhda rollar (matnni tahlil qiluvchi, savol tuzuvchi, izohlovchi va taqdimotchi) taqsimlab chiqildi. 3. Natijalarni baholash va tahlil qilish bosqichi. Eksperimental va nazorat guruhlaridan olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi, statistik ma'lumotlar qayta ishlandi va pedagogik samaradorlik darajasi aniqlandi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot jarayonida olib borilgan eksperimental-sinov ishlari adabiy ta'limda kollaborativ yondashuv turlaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini keskin oshirib, badiiy asarni idrok etish darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishini amalda tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik natijalar qayd etildi va statistik tahlil qilindi:

-jamoaviy matn tahlili (Collaborative Text Analysis) samaradorligi. Yirik hajmli epik yoki dramatik asarlarni o'rganishda sinfni kichik guruhlariga bo'lib o'qitish o'quvchilarning asar syujeti va g'oyaviy mazmunini o'zlashtirish vaqtini maqbullashtirib, chuqur tahlil qilish imkoniyatini berdi. Ta'lim oluvchilar faqatgina matn voqealarini bayon qilish bilan cheklanib qolmay, balki qahramonlarning psixologik holati, muallif mahorati va asarning tagma'nolarini ochib berishda bir-birlarining fikrlarini boyitdilar;

-o'zaro o'qitish (Reciprocal Teaching) texnologiyasining natijalari. Ushbu metod asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar mustaqil ravishda savollar tuzish, matnning murakkab o'rinlarini izohlash va keyingi voqealarni oldindan aytib berish ko'nikmalarini egalladilar. Natijada, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va nutqiy muloqot darajasi oshdi;

-juftlikdagi muhokama (Peer Discussion-Think-Pair-Share) texnologiyasining o'ziga xos samaradorligi. Badiiy asar tahlilida o'quvchilarning juftlikda ishlashini tashkil etish har bir ishtirokchining muloqot jarayonidan chetda qolmasligini ta'minladi. Juftlikdagi muhokama bosqichida o'quvchilar o'qituvchi oldida javob berishdagi psixologik to'siq (xavotir va hayajon) ni yengib, o'z fikrini erkin, ishonchli bayon qilish ko'nikmasiga ega bo'ldilar. Ushbu metod matn mazmuni yuzasidan tezkor savol-javob o'tkazish, qahramonlarning xatti-harakatlariga munosbat bildirish va muallif g'oyasini shaxsiy hayotiy tajriba bilan qiyoslashda yuqori natija berdi.

-statistik ko'rsatkichlar. Eksperimental sinflarda o'quvchilarning adabiy -estetik kompetensiyalari va matnni tahlil qilish malakalari nazorat sinflariga nisbatan yuqori ekani aniqlandi. Ijobiy o'zaro bog'liqlik va shaxsiy javobgarlik tamoyillariga asoslangan darslar ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlarini yaxshilab, o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirdi.

Metodik jihatdan kollaborativ yondashuvni adabiy ta'limga tatbiq etishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish muhim:

-badiiy asar tanlashda o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari va estetik tayyorgarlik darajasini hisobga olish;

-guruhli ishlarda har bir ishtirokchining aniq vazifaga ega bo'lishini ta'minlash va shaxsiy javobgarlik muhitini yaratish;

-o'qituvchining vazifasini “bilim beruvchi” dan “fasilitator va yo'naltiruvchi” darajasiga o'tkazish. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kollaborativ yondashuv o'quvchilarda nafaqat adabiy-estetik bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, balki ularda bag'rikenglik, o'zgalar nuqtayi nazarini hurmat qilish, jamoada muammoli vaziyatlarni hal etish kabi kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Xulosa. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida adabiy ta'lim jarayonini kollaborativ yondashuv asosida tashkil etish zamonaviy pedagogikaning ustuvor talablaridan biri hisoblanadi. Adabiy ta'limda guruhli hamkorlik, o'zaro o'qitish va juftlikdagi muhokama kabi kollaborativ turlardan foydalanish o'quvchilarning badiiy matnni idrok etish va chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Shu bilan birgalikda, kollaborativ yondashuvning konseptual-metodik asoslari ijtimoiy-konstruktivistik g'oyalar hamda L.Vigotskiyning “Ijtimoiy-madaniy rivojlanish” nazariyasiga tayanib, ta'lim oluvchilarning intellektual va shaxsiy o'sishini ta'minlaydi.

Kelgusida ushbu yondashuvni raqamli ta'lim muhiti va zamonaviy interfaol vositalar bilan uyg'unlashtirgan holda yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldoshev J, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.-Toshkent. :2009.-352 b.
2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari.-Toshkent. : 1996. 152 b.
3. Matchonov S, Azimova L, Ziyovuddinova M. Boshlang'ich sinflarda adabiy ta'lim.-Toshkent. : 2010. 144 b.
4. Выготский. Мышление и речь.- Москва. : 2000.- 352 b.
5. Jonson D, Jonson R. Learning Together and Alone: Cooperative , Competitive and Individualistic Learning.- Boston. : 1994. -292 b.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi.- Toshkent. : 2010.-160 b.